
On the soviet-period historiography of uzbekistan's musical art and music education system

Murtazova Sahodat Buriyevna

sahodat@mail.ru

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Professor,
Head of the Department of History and Social
Sciences,
University of Economics and Pedagogy

Annotation *This article presents and analyzes selected scholarly works related to the historiography of Uzbekistan's musical art and music education system during the Soviet period. Particular attention is paid to the dominance of the prevailing ideological framework, which significantly influenced historiographical studies and is clearly reflected in the works produced during that era. At the same time, the article highlights the emergence of substantial scholarly research devoted to the history of music and music education. It also provides information on the contributions of both Uzbek and Russian-speaking musicologists whose studies have played an important role in the development of the historiography of the field.*

Keywords *Art, culture, historiography, Soviet period, ideology, maqom, composer, music, monograph, article*

O'zbekiston musiqa san'ati va ta'lim tizimining sovet davri tarixshunosligidan

Murtazova Sahodat Bo'riyevna

sahodat@mail.ru

"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri,
professor,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada O'zbekiston musiqa san'ati va ta'lim tizimining sovet davri tarixshunosligiga oid adabiyotlardan namunalar keltirilib, ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, bu davr tarixshunosligida hukmron mafkuraning ustunligi, yaratilgan asarlarda ham ushbu mezon ustunligi seziladi. Shuningdek soha tarixshunosligiga oid salmoqli ishlarning ham yaratilganligi, milliy va rusiyzabon musiqashunoslar tomonidan yaratilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar *San'at, madaniyat, tarixshunoslik, sovet davri, mafkura, maqom, kompozitor, musiqa, monografiya, maqola*

Из историографии музыкального искусства и системы музыкального образования узбекистана советского периода

Муртазова Саҳодат Буриевна

sahodat@mail.ru

Доктор философии (PhD) по историческим
наукам, профессор,
Заведующая кафедрой «История и
общественные науки»,
Университет экономики и педагогики

Аннотация *В данной статье представлены и проанализированы научные труды, посвящённые историографии музыкального искусства и системы музыкального образования Узбекистана советского периода. Особое внимание уделяется влиянию господствующей идеологии на историографические исследования, что отчётливо прослеживается в работах, созданных в этот период. Вместе с тем отмечается появление значительного числа фундаментальных исследований, посвящённых истории музыкального искусства и музыкального образования. Приводятся сведения о научных трудах, подготовленных как узбекскими, так и русскоязычными музыковедами, внесшими существенный вклад в изучение данной проблематики.*

Ключевые слова *Искусство, культура, историография, советский период, идеология, маком, композитор, музыка, монография, статья*

Kirish

O'zbekiston musiqa san'ati tarixiga oid ilmiy va publitsistik manbalarni davriy jihatdan Rossiya imperiyasi davri, sovet davri hamda mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir tarixiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish uchun ularni alohida o'n yilliklar kesimida ham ko'rib chiqish zarur. Sababi, turli davrlarda mavjud bo'lgan siyosiy va mafkuraviy muhit madaniyat hamda san'at sohalarining rivojlanish yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar va nashrlarda davr mafkurasi ustuvor o'rin egallaganligi kuzatiladi. Natijada milliy musiqa san'ati va uning tarixiy taraqqiyotini yoritishda bir qator cheklovlar yuzaga kelgan. Ko'plab tadqiqotlarda madaniy jarayonlar kommunistik g'oyalar nuqtayi nazaridan talqin etilib, xalqning an'anaviy musiqiy merosi hamda milliy qadriyatlari yetarli darajada xolis baholanmagan (Vinogradov, 1961). Ayrim hollarda esa xalq og'zaki ijodi va an'anaviy musiqa yo'nalishlariga ikkinchi darajali hodisa sifatida qaralgan.

Asosiy qism

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa 1950-yillardan e'tiboran, musiqa san'ati

tarixini ilmiy asosda tadqiq etishga qiziqish kuchaydi. Musiqashunos olimlar oldida milliy musiqa merosining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va badiiy ahamiyatini chuqur o'rganish vazifasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu davrdan boshlab ilmiy adabiyotlarda o'tmish musiqiy merosiga nisbatan munosabat asta-sekin o'zgarib, tarixiy-badiiy qadriyatlarni o'rganish zarurati kengroq e'tirof etila boshladi. Tadqiqotchilar tomonidan madaniy merosga loqayd munosabat ilmiy izlanishlarning sustlashuviga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanib, musiqa tarixini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati alohida qayd etildi (Karomatov, 1962).

1950-yillarning ikkinchi yarmiga kelib O'zbekiston musiqa tarixini tadqiq etish borasidagi yondashuvlarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Aynan shu davrdan boshlab musiqa san'ati tarixini tizimli va reja asosida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi (Karomatov, 1962). Tadqiqotchilar tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini anglamasdan turib zamonaviy madaniy jarayonlarni to'liq tushunish mushkul ekanligini ta'kidladilar. Shu bois musiqa san'atining bugungi holatini baholashda uning uzoq tarixiy ildizlarini o'rganish muhim ilmiy vazifa sifatida qarala boshlandi (Karomatov, 1967).

1960-yillarda respublika matbuotida musiqa madaniyati va uning rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy hamda publitsistik maqolalar e'lon qilindi. Bu yo'nalishda V.M. Belyayev, T. Vizgo, A. Jabborov, N. Yanov-Yanovskaya singari olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin tutdi. Ularning ishlari o'zbek musiqa san'atining tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari va milliy xususiyatlarini yoritishga xizmat qildi.

Sobiq Ittifoq miqyosida yaratilgan musiqashunoslikka oid tadqiqotlarda ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek musiqa madaniyati masalalariga murojaat qilingan. Ayrim mualliflar mintaqada professional musiqa shakllari va janrlarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi jarayonini milliy musiqa an'analari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilganlar. Bu esa mintaqa musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ilmiy jihatdan yoritishga imkon yaratdi.

1950–1960-yillarda o'zbek musiqa madaniyatiga bag'ishlangan qator ocherklar va ilmiy-ommabop nashrlar ham chop etildi. Mazkur asarlarda o'zbek musiqasining tarixiy taraqqiyoti, badiiy xususiyatlari hamda uni ilmiy jihatdan o'rganish masalalari yoritildi (Rajabov, 1963) Mualliflar o'zbek xalq musiqasi ko'p asrlik tarixiy an'analarga ega ekanligini qayd etar ekanlar, uning rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi manbalar soni cheklanganligi va mavjud materiallarning ayrim hollarda yetarlicha mukammal emasligini ham ta'kidladilar. Shu sababli milliy musiqa merosini chuqur va kompleks o'rganish zarurati ilmiy jamoatchilik tomonidan dolzarb masala sifatida ilgari surildi (Жирмунский, 1947).

O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining boy badiiy merosi, rang-barang ohanglari va milliy ijrochilik an'analari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning kuy va qo'shiqlari, shuningdek, an'anaviy cholg'u asboblarning o'ziga xosligi o'zbek musiqasini boshqa xalqlar musiqiy madaniyatidan ajratib turuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

1968-yilda chop etilgan "Ocherki istorii muzikalnoy kulturi Uzbekistana" nomli ilmiy

maqolalar to'plami O'zbekiston musiqa madaniyati tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'ldi. Mazkur nashrda S.M. Vekslarning o'zbek xalq musiqiy merosiga, I. Akbarov va F. Karomatovning xalq qo'shiqlariga, A.X. Jabborovning musiqali drama janriga, V.A. Golovinaning fortepiano musiqasiga hamda bolalar qo'shiqlariga bag'ishlangan tadqiqotlari o'rin olgan. To'plamning birinchi qismida musiqa san'ati tarixi va nazariy masalalari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismida o'zbek xalq va mumtoz musiqasining janriy xususiyatlari hamda badiiy jihatlarini tahlil qilingan.

1960-yillarda O'zbekiston musiqa san'ati tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarning salmoqli qismi musiqashunos olim F. Karomatov tomonidan amalga oshirildi. Uning ilmiy ishlari asosan maqola va risola shaklida bo'lib, ularda o'zbek musiqa madaniyatining ayrim tarixiy jihatlarini yoritildi. Tadqiqotlarda ko'proq sovet davrida musiqa san'atining rivojlanish jarayonlari, musiqa merosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tashabbuslar va madaniy muassasalar faoliyati tahlil qilindi (Karomatov, 1972)

Xususan, muallif 1919-yilda Xalq maorifi komissarligi tarkibida Musiqali-etnografik seksiyaning tashkil etilishi, Samarqandda Musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutining faoliyat boshlashi hamda milliy musiqa merosini ilmiy o'rganishga hissa qo'shgan N. Mironov, V. Uspenskiy, Ye. Romanovskaya va I. Akbarov kabi olimlarning faoliyatini keng yoritgan. Ushbu tadqiqotlar orqali o'zbek musiqa san'atini o'rganishning dastlabki bosqichlari va ilmiy maktablar shakllanish jarayoni ochib berilgan.

F. Karomatov(1972) o'z asarlarida milliy musiqa an'analari saqlash va rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. U professional kompozitorlik ijodida xalq kuylaridan samarali foydalanish, milliy ruh va xalqona ohanglarni zamonaviy musiqiy shakllar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidladi. Olimning fikricha, musiqiy asarlar keng tinglovchilar ommasiga yetib borishi va ularda

estetik taassurot uyg'otishi uchun xalqning ruhiy dunyosi hamda milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratilishi lozim edi. Shu jihatdan uning qarashlari o'zbek milliy musiqa san'atining keyingi taraqqiyotida muhim nazariy ahamiyat kasb etdi.

Maqom Sharq xalqlari musiqiy madaniyatining eng murakkab va mukammal shakllaridan biri hisoblanadi. U ko'p asrlar davomida professional sozanda va hofizlar ijodi hamda ijrochilik an'analari asosida shakllanib, boy musiqiy meros sifatida avlodlardan avlodga o'tib kelgan (Vizgo, 1980). Musiqa nazariyasiga oid risolalar, tarixiy manbalar va badiiy asarlarda maqom san'atining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda ijrochilik an'analari haqida muhim ma'lumotlar uchraydi.

XX asrning 1960-yillarida O'zbekistonda maqom san'atini ilmiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan dastlabki fundamental tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada I. Rajabovning (1963) ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning maqomlarga bag'ishlangan monografiyasi mazkur yo'nalishdagi muhim ilmiy ishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotda maqomlarning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari tarixiy manbalar asosida yoritilgan hamda ularning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilingan.

Monografiyaning birinchi qismida maqomlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy omillar va madaniy jarayonlar ko'rib chiqilgan bo'lsa, ikkinchi qismida Shashmaqom tizimi, Xorazm maqomlari hamda Farg'ona – Toshkent maqom yo'llarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Muallif ushbu yo'nalishlarning o'zaro aloqadorligini ilmiy dalillar asosida izohlashga harakat qilgan. Asarning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda maqom san'ati sovet mafkurasida ilgari surilgan ayrim salbiy qarashlardan xoli ravishda baholanib, uning badiiy va madaniy qiymati ilmiy asosda ochib berilgan.

Musiqashunoslikda maqomlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalasi uzoq vaqt davomida munozarali mavzulardan biri bo'lib

keldi. Ayrim tadqiqotchilar maqomlarni asosan arab va fors musiqiy an'analari bilan bog'lashga intilgan bo'lsalar, I. Rajabov (1963) bu masalaga boshqacha yondashdi. Olim maqomlar xalq musiqasi ijodi zaminida shakllanganligini ta'kidlab, ularning xalq musiqasi bilan uzviy aloqada rivojlanib borganligini ilmiy jihatdan asoslashga urindi. Uning fikricha, maqomlar xalq musiqiy merosi bilan o'zaro ta'sirda boyib borgan va milliy musiqa madaniyatining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan.

1950–1960-yillarda o'zbek folkloriga bag'ishlangan tadqiqotlar sonining nisbatan kamaygani kuzatiladi. Bu davrda folklorshunoslikka oid ko'plab ishlar asosan filolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, musiqiy folklor masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. (Гафурбеков, 1987)

1970–1980-yillarga kelib sovet mafkurasining ilm-fan va madaniyat sohalariga ta'siri yanada kuchaydi. Natijada milliy madaniyat va an'anaviy san'at namunalari, jumladan, mumtoz musiqa merosiga nisbatan biryozlama yondashuvlar kuchaydi. Shunga qaramay, aynan shu davrda o'zbek musiqa madaniyatiga oid qator yirik ilmiy tadqiqotlar yaratildi va ular keyingi musiqashunoslik taraqqiyotiga muhim zamin bo'lib xizmat qildi.

Mazkur davrning yetuk tadqiqotchilaridan biri T. Vizgo (1970) bo'lib, u O'zbekiston musiqa san'ati tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan sanaladi. Uning 1970-yilda nashr etilgan "Razvitiye muzikalnogo iskusstva Uzbekistana i yego svyazi s russkoy muzikoy" nomli monografiyasi mazkur yo'nalishdagi eng salmoqli ishlardan biri hisoblanadi. Asarda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek musiqiy hayoti, sovet davrida musiqa madaniyatining rivojlanishi, musiqali teatrlarning tashkil etilishi, folklor namunalari yozib olinishi va tadqiq qilinishi, shuningdek, rus hamda o'zbek kompozitorlarining ijodiy faoliyati yoritilgan.

1970-yillarda F. Karomatov (1972) o'zbek musiqa madaniyati tarixini tadqiq etish borasidagi ilmiy faoliyatini davom ettirib, ushbu sohaga bag'ishlangan yirik monografiyasini

nashr ettirdi. Asar uch asosiy bo'limdan tashkil topgan bo'lib, uning dastlabki qismida o'zbek xalq cholg'ulari va an'anaviy qo'shiqchilik san'ati masalalari yoritilgan. Muallif musiqa asboblarini zarbli, puflama va torli guruhlarga ajratgan holda ularning tarixiy taraqqiyoti hamda milliy madaniyatdagi o'rnini tahlil qiladi. Xususan, doira, nog'ora, qayroq, nay, karnay, surnay, changqovuz, dutor, tanbur, chang va rubob kabi cholg'ularning kelib chiqishi hamda rivojlanish bosqichlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri o'zbek xalq cholg'ularining ilmiy tasnifi ishlab chiqilganligidir.

F. Karomatov o'zbek musiqa asboblarini tavsiflash va tasniflash jarayonida xalqaro musiqashunoslik tajribalaridan ham keng foydalangan. Jahon olimlarining nazariy qarashlarini o'rganib, ularni milliy musiqa merosini tahlil qilishda samarali qo'llagan. Monografiyada, shuningdek, o'zbek musiqa san'atining tur va janrlari, jumladan, harbiy musiqa, marosim qo'shiqlari, bayram va to'y an'analari bilan bog'liq musiqiy namunalarning o'ziga xos xususiyatlari ham yoritilgan.

O'rta Osiyoda simfonik musiqa janrining shakllanishi va rivojlanishi masalalari I. Vizgo-Ivanovning (1970) tadqiqotlarida alohida o'rin tutadi. Olim o'z monografiyasida mazkur jarayonni uch tarixiy bosqichga – 1917–1941-yillar, 1941–1945-yillar hamda 1945–1967-yillarga ajratib o'rganadi. Tadqiqotda milliy kompozitorlik maktabining shakllanishi, simfonik janrning o'zbek musiqa madaniyatiga kirib kelishi, xalq kuylarini simfonik shakllarga moslashtirish tajribalari hamda Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda yaratilgan asarlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, asarda davr mafkurasining ta'siri sezilib, simfonik musiqaning rivojlanishi ko'proq sovet davlatining madaniy siyosati va rus musiqiy maktabining ta'siri bilan izohlangan.

O'zbekiston musiqashunosligi tarixida muhim voqealardan biri ko'p jildli "O'zbek musiqa san'ati tarixi" asarining yaratilishi bo'ldi (История узбекской Советской музыки,

1972). Mazkur tadqiqot o'zining hajmi, qamrovi va ilmiy manbalarga boyligi bilan avvalgi ishlardan keskin farq qilar edi. Bungacha musiqa tarixiga oid tadqiqotlarning aksariyati maqola, risola yoki kichik hajmdagi monografiyalar shaklida yaratilgan bo'lsa, ushbu ko'p jildli asar sohani kompleks ravishda yoritishga qaratilgan dastlabki fundamental tadqiqot sifatida maydonga chiqdi.

Biroq asarda sovet davri mafkurasining ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'lgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori sovet hokimiyatining musiqa sohasidagi siyosatini yoritish va uning natijalarini targ'ib qilishga qaratilgan. Shu sababli o'zbek musiqa madaniyatining taraqqiyoti ko'pincha sovet tuzumi bilan bog'liq holda talqin etilgan. Ayrim o'rinlarda hatto o'zbek professional musiqasi aynan sovet davrida shakllangan degan qarash ilgari surilib, uning ko'p asrlilik tarixiy ildizlari yetarli darajada hisobga olinmagan. Bu holat davr ilmiy adabiyotlarida hukmron bo'lgan mafkuraviy yondashuvning yaqqol namunasidir.

Shunga qaramay, mazkur ko'p jildli nashr o'zbek musiqa san'ati tarixiga oid ko'plab faktik materiallar, arxiv ma'lumotlari va ilmiy kuzatishlarni bir tizimga solgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham u musiqa madaniyati tarixini o'rganishda muhim tarixshunoslik manbalaridan biri sifatida o'z qadrini saqlab qolmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 60–80-yillarida O'zbekiston musiqa san'ati tarixini o'rganish bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va musiqashunoslik fanining nazariy hamda amaliy asoslari sezilarli darajada boyitildi. Bu davrda maqom san'ati, xalq cholg'ulari, musiqiy folklor, simfonik musiqa hamda o'zbek musiqa madaniyatining tarixiy taraqqiyotiga bag'ishlangan qator fundamental asarlar yaratildi. I. Rajabov, F. Karomatov, T. Vizgo va boshqa musiqashunos olimlarning tadqiqotlari milliy musiqa merosini ilmiy jihatdan o'rganish va tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga, mazkur davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda sovet mafkurasining ta'siri sezilib, ayrim masalalar biryozqlama talqin qilinganligi ham kuzatiladi. Xususan, o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyoti ko'pincha sovet madaniy siyosati bilan bog'lab izohlangan, milliy musiqa san'atining ko'p asrlik tarixiy ildizlari esa ba'zan yetarli darajada yoritilmagan. Biroq mafkuraviy cheklovlarga qaramay, ushbu davrda yaratilgan monografiyalar, maqolalar va ko'p jildli tadqiqotlar O'zbekiston musiqa madaniyati

tarixiga oid boy faktik materiallarni jamlagani bilan alohida ahamiyatga ega.

Natijada, 1960–1980-yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar keyingi davr musiqashunosligi uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratib, milliy musiqa merosini chuqurroq va xolisona tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu sababli mazkur davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlar O'zbekiston musiqa san'ati tarixshunosligining muhim bosqichi sifatida baholanishi mumkin.

References:

1. *Aktualnyye problemy izucheniya muzykalnykh kultur stran Azii i Afriki* [Current Problems in the Study of the Musical Cultures of Asia and Africa]. (1983). Fan.
2. *Atlas muzykalnykh instrumentov narodov SSSR* [Atlas of the Musical Instruments of the Peoples of the USSR]. (1963). Moscow.
3. Dräger, H.-H. (1948). *Prinzip einer Systematik der Musikinstrumente*. Bärenreiter-Verlag.
4. Gafurbekov, T. B. (1984). *Folklornyye istoki uzbekskogo professionalnogo muzykalnogo tvorchestva* [Folklore Origins of Uzbek Professional Musical Creativity]. Tashkent.
5. Gafurbekov, T. (1987). *Tvorcheskiye resursy natsionalnoy monodii i ikh prelomleniye v Uzbekskoy sovetskoy muzyke* [Creative Resources of National Monody and Their Transformation in Uzbek Soviet Music]. Fan.
6. Hornbostel, E. M. von, & Sachs, C. (1914). Versuch einer Systematik der Musikinstrumente [An Attempt at a Classification of Musical Instruments]. *Zeitschrift für Ethnologie*, 46(4–5), Berlin.
7. *Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki* [History of Uzbek Soviet Music] (Vol. 1). (1972). Tashkent.
8. *Istoriya uzbekskoy sovetskoy muzyki* [History of Uzbek Soviet Music] (Vol. 2). (1973). Tashkent.